



UDK: 130.2: 141.7

*Dilrabo AXMEDOVA,*  
*Iqtisodiyot va Pedagogika universiteti katta o'qituvchisi*  
*E-mail: dilliaxmedova@gmail.com*

*FarDU dotsenti B.Yuldashev taqrizi asosida*

## POSTMODERN MADANIYAT SHAROITIDA MA'NAVY BO'SHLIQ MUAMMOSI VA UNI BARTARAF ETISH YO'LLARI

Аннотация

Ushbu maqolada postmodern madaniyat sharoitida shakllanayotgan ma'naviy bo'shliq muammosi tahlil qilinadi. Muallif globalizatsiya, texnologik taraqqiyot va iste'mol jamiyati ta'sirida inson ma'naviy dunyosida yuzaga kelayotgan bo'shliq, qadriyatlarining nisbiylashuvi hamda identitet inqirozi jarayonlarini ko'rib chiqadi. Shuningdek, ma'naviy bo'shliqni bartaraf etish yo'llari sifatida milliy qadriyatlarni tiklash, ma'naviy tarbiya tizimini takomillashtirish va zamonaviy madaniyatda axloqiy mezonlarni qayta tiklash zarurligi asoslab beriladi.

**Kalit so'zlar:** Postmodernizm, madaniyat, ma'naviy bo'shliq, qadriyatlar, identitet, globallashuv, ma'naviyatni tiklash.

## ПРОБЛЕМА ДУХОВНОЙ ПУСТОТЫ В УСЛОВИЯХ ПОСТМОДЕРНИСТСКОЙ КУЛЬТУРЫ И ПУТИ ЕЁ ПРЕОДОЛЕНИЯ

Аннотация

В статье анализируется проблема духовной пустоты в условиях постмодернистской культуры. Автор рассматривает влияние глобализации, технологического прогресса и общества потребления на формирование кризиса ценностей и идентичности человека. Особое внимание уделено путям преодоления духовной пустоты: возрождению национальных ценностей, совершенствованию системы духовного воспитания и восстановлению моральных ориентиров в современной культуре.

**Ключевые слова:** Постмодернизм, культура, духовная пустота, ценности, идентичность, глобализация, духовное возрождение.

## THE PROBLEM OF SPIRITUAL EMPTINESS IN THE CONTEXT OF POSTMODERN CULTURE AND WAYS TO OVERCOME IT

Annotation

This article explores the problem of spiritual emptiness in the context of postmodern culture. The author analyzes how globalization, technological progress, and consumer society contribute to the crisis of values and human identity. The study emphasizes the importance of restoring national values, improving moral education, and re-establishing ethical standards as essential ways to overcome spiritual emptiness in modern cultural conditions.

**Key words:** Postmodernism, culture, spiritual emptiness, values, identity, globalization, spiritual renewal.

**Kirish.** Bugungi kunda insoniyat axborot va texnologiyalar asrida yashamoqda. Raqamli texnologiyalar, internet, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy madaniyatning ta'siri ostida jamiyatda yangi madaniy shakllanish – postmodern madaniyat vujudga keldi. Bu madaniyat inson hayotini yangicha tafakkur bilan boyitgani holda, ma'naviyat, qadriyat va axloqiy mezonlarga nisbatan befarqlik, nisbiylik, iste'molchilik kayfiyatini ham kuchaytirdi.

Postmodernizmning mohiyati – “haqiqat yo'q, har bir narsa nisbiy” degan g'oyaga asoslanadi. Natijada inson o'zligini anglash, hayot ma'nosini topish va axloqiy mezonlarga tayanishdan uzoqlashmoqda. Shu jarayonda ma'naviy bo'shliq – ya'ni insonning ma'naviy, axloqiy va ruhiy tayanchlardan ayrilishi hodisasi paydo bo'ladi. Mazkur maqola postmodern madaniyat sharoitida ma'naviy bo'shliq muammosini ilmiy tahlil qilish hamda uni bartaraf etish yo'llarini ko'rsatishga bag'ishlanadi.

**Adabiyotlar tahlili.** Postmodern madaniyat va ma'naviy bo'shliq muammosi bugungi falsafa, sotsiologiya, madaniyatshunoslik va ma'naviyat tadqiqotlarida eng dolzarb mavzulardan biri sifatida qaralmoqda. Ushbu yo'nalishda g'arb va sharq mutafakkirlarining qarashlari turlicha bo'lsa-da, ularni umumlashtiruvchi jihat — zamonaviy insonning ma'naviy

inqirozi, identitet yo'qotilishi va qadriyatlar tizimining nisbiylashuvi haqidagi fikrdir. Fransuz faylasufi Jan-Fransua Lyotar o'zining “Postmodern holat: zamonaviylik haqidagi hisobot” (1979) asarida postmodernizmni modern davrning “katta narrativlari” (ya'ni, umumiy haqiqat, din, axloq, ilm-fan kabi tizimlar) inqirozi sifatida ta'riflaydi. Lyotarning fikricha, postmodern dunyoda yagona haqiqat o'rniga ko'plab kichik, o'zaro qarama-qarshi “haqiqatlar” paydo bo'ladi. Bu holat insonni ma'naviy barqarorlikdan mahrum etadi va ichki bo'shliqni keltirib chiqaradi [1].

Jan Bodriyarning “Simulyakra va simulyatsiya” (1981) asarida esa postmodern jamiyat “reallikdan uzilgan belgilar dunyosi” sifatida tasvirlanadi. Unga ko'ra, zamonaviy inson “haqiqiy hayot” o'rniga ommaviy axborot vositalari, reklama, kino va internet orqali yaratilgan “sun'iy reallikda” yashaydi[2]. Bu esa insonni ruhiy jihatdan begonalashtiradi va ma'naviy bo'shliq holatini kuchaytiradi. Britaniyalik sotsiolog Entoni Giddens “Modernlik va o'zlik” (1991) nomli asarida shaxs identiteti muammosini tahlil qilib, zamonaviy inson o'zligini “doimiy loyihalash” holatida ekanligini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, global madaniyatning dinamikasi, texnologik taraqqiyot va ijtimoiy o'zgarishlar insonni o'z qadriyatlariga

nisbatan shubha bilan qarashga majbur qiladi. Bu shubha esa ma'naviy tayanchlarning zaiflashuviga olib keladi [3].

G'arb olimlari qatorida, ma'naviy inqirozga nisbatan tanqidiy qarashni Z. Baumann, E. Fromm, C. Lasch singari mutafakkirlar ham ilgari surgan. Masalan, Baumannning "Suyuq zamon" (2000) konsepsiyasida zamonaviy insonning hayoti o'zgaruvchan, beqaror va ma'naviy jihatdan suyuqlashgan holatda tasvirlanadi [4]. Fromm esa "Egallash yoki mavjud bo'lish" (1976) asarida iste'molchilik madaniyatini inson ruhiyatini "bo'sh" qiluvchi asosiy omil sifatida ko'rsatadi. Sharq va O'zbekiston olimlarining tadqiqotlarida esa postmodernizm g'oyalarning milliy ma'naviyatga ta'siri o'ziga xos yo'sinda tahlil qilinadi [5]. I.A. Karimovning "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" (2008) asarida inson ma'naviy dunyosi har qanday taraqqiyotning poydevori ekanligi alohida ta'kidlanadi. Unga ko'ra, g'arb postmodern madaniyatidagi axloqiy nisbiylik O'zbekiston jamiyati uchun xavfli bo'lishi mumkin, chunki u milliy qadriyatlar tizimini yemiradi. Shuning uchun, ma'naviyatni mustahkamlash, yosh avlodga milliy o'zlikni uyg'otish – zamonaviy davrning eng dolzarb vazifasidir [6].

N. To'xtayevaning "Globallashuv davrida milliy qadriyatlar va ma'naviylik muammolari" (2020) nomli tadqiqotida esa global madaniy almashinuv jarayonlarining ijobiy va salbiy tomonlari tahlil qilinadi. Muallifning fikricha, postmodern madaniyat insonni yangicha fikrlashga o'rgatgan bo'lsa-da, bu madaniyatning cheksiz nisbiylik tamoyili insonni maqsadsizlik va bo'shliq tomon yetaklamoqda. A. Shavkatov va Z. Xudoyberdiyeva singari mahalliy tadqiqotchilar o'z ishlarida postmodern madaniyatni "ma'naviy relativizm" hodisasi sifatida baholab, uning milliy identitetga tahdidlari va shu jarayonda ma'naviy immunitet yaratish zarurligini ilmiy asoslab beradilar. Ularning fikricha, postmodern muhitda ma'naviy barqarorlikni saqlash uchun milliy madaniyat, urf-odat va diniy qadriyatlar uyg'un holda rivojlantirilishi zarur[7].

Shuningdek, A. Toynbi va S. Xantington kabi sivilizatsiya nazariyachilari ham madaniyatlar to'qnashuvi davrida ma'naviy tiklanish masalasini markazga qo'ygan. Toynbi o'zining "Tarixni o'rganish" asarida jamiyatlarining qulash sababi moddiy emas, balki ma'naviy inqiroz bilan bog'liqligini isbotlab beradi[8].

Umuman olganda, ilmiy manbalarning tahlili shuni ko'rsatadiki, postmodern davrning asosiy paradoksi — inson erkinligi va texnologik taraqqiyotning o'sishi bilan birga ma'naviy bo'shliqning kengayib borishidir. G'arb olimlari bu holatni falsafiy nuqtai nazardan o'rganib, haqiqat va ma'no nisbiylashuvi bilan izohlasa, Sharq olimlari uni ma'naviyatdan uzoqlashish va ruhiy qadriyatlarining yemirilishi bilan bog'lashadi.

Demak, ilmiy adabiyotlarning umumiy tahlili shundan dalolat beradiki, postmodern madaniyat sharoitida ma'naviy bo'shliqni bartaraf etish yo'li – insonning o'z ma'naviy ildizlariga qaytishi, milliy qadriyatlar va umuminsoniy g'oyalarni uyg'unlashtirish orqali mumkin.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu tadqiqot postmodern madaniyat sharoitida ma'naviy bo'shliq muammosining falsafiy mohiyatini, uning zamonaviy jamiyat ongidagi aksini hamda bartaraf etish mexanizmlarini ilmiy asosda o'rganishga qaratilgan. Mazkur mavzuning murakkabligi, ko'p qatlamlilik va ijtimoiy-madaniy jarayonlar bilan bevosita bog'liqligi sababli tadqiqot quyidagi metodologik yondashuvlar asosida olib borildi.

Mazkur tadqiqot metodologiyasi postmodern madaniyatda ma'naviy bo'shliq muammosini har tomonlama – falsafiy, sotsiologik, madaniy, psixologik, tarixiy va amaliy jihatdan kompleks o'rganishga imkon beradi. Yondashuvlarning integratsiyasidan foydalanish muammoni

yanada chuqurroq va universal tarzda tahlil qilishga yordam beradi.

**Natijalar va muhokama.** Postmodernizm XX asrning ikkinchi yarmida modernizm g'oyalari qarshi reaksiyaviy hodisa sifatida yuzaga keldi. Modernizm inson aqliga, ilm-fanga va taraqqiyotga ishonchni ulug'lagan bo'lsa, postmodernizm bu ishonchni rad etadi. Unga ko'ra, insoniyat hech qanday mutlaq haqiqatga ega emas; haqiqatlar ko'p, ular nisbiy va subyektivdir. Postmodern madaniyatda san'at, adabiyot, moda, kino va reklama orqali ramzlar, belgilar va simvollar ustunlik qiladi. "Tirik haqiqat" o'rnini "sun'iy reallik" egallaydi. Bu holat insonni voqelikdan uzoqlashtirib, ma'naviy izolyatsiyaga olib keladi.

Ma'naviy bo'shliq — bu insonning ma'nosizlik, maqsadsizlik, qadriyatlar inqirozi, ruhiy charchoq va begonalashuv holatiga tushishidir. Bu hodisa jamiyatda quyidagi shakllarda namoyon bo'ladi:

Iste'molchilik va moddiy manfaatlar ustuvorligi;

Axloqiy me'yorlarning nisbiylashuvi;

Milliy va diniy qadriyatlariga befarqlik;

Ruhiy turg'unlik va identitet inqirozi.

Zamonaviy inson uchun "kimman?", "nima uchun yashayapman?" degan savollar tobora muhimlashmoqda, lekin postmodern muhit bu savollarga aniq javob bermaydi. Natijada, inson o'z hayotini texnologik yutuqlar, internetdagi virtual faollik bilan to'ldiradi, ammo ma'naviy jihatdan bo'sh qoladi.

Ma'naviy bo'shliqni keltirib chiqargan omillar:

1. Globallashuv jarayonlari – milliy madaniyatlarining chegaralari yo'qolib, ommaviy madaniyat ustunlik qildi.

2. Texnologik inqilob – inson muloqoti sun'iy platformalarga ko'chdi, bu esa haqiqiy his-tuyg'ularni susaytirdi.

3. Iste'mol jamiyati mafkurasi – "ko'proq sotib olish – baxtli bo'lish" degan yolg'on tushunchani shakllantirdi.

4. Ma'naviy tarbiya tizimining zaiflashuvi – oilaviy, maktab va ijtimoiy muhitda axloqiy qadriyatlar yetarlicha singdirilmayapti.

4. Ma'naviy bo'shliqni bartaraf etish yo'llari

1. Milliy va umuminsoniy qadriyatlarni tiklash.

2. Har bir xalqning ma'naviy poydevori — uning tili, dini, adabiyoti va tarixidir. Shu manbalarni yangicha talqin etish va yosh avlod ongiga singdirish zarur.

1. Ma'naviy tarbiya tizimini takomillashtirish.

2. Ta'lim muassasalarida falsafa, etika, ma'naviyat fanlariga e'tibor kuchaytirilishi lozim. Shuningdek, raqamli madaniyat sharoitida axloqiy immunitetni shakllantirish muhimdir.

3. Axborot makonida ma'naviylikni targ'ib etish.

4. Internet, kino, ijtimoiy tarmoqlarda ma'naviy qadriyatlarni ommalashtirish – zamonaviy yoshlar dunyoqarashini to'g'ri shakllantirishning muhim omilidir.

5. Oila va jamiyatning ma'naviy mas'uliyatini kuchaytirish.

6. Oila – eng birlamchi ma'naviy maktab. Shuning uchun unda mehr, hurmat, mas'uliyat, halollik kabi qadriyatlarni mustahkamlash zarur.

Postmodern madaniyat inson tafakkurini, ijodini va erkinligini boyitgan bo'lsa-da, u insonni ma'naviy izolyatsiyaga olib kelgan yangi inqiroz shaklini ham yaratdi. Ma'naviy bo'shliq – bu zamonaviy jamiyatning eng dolzarb muammolaridan biridir. Uni bartaraf etish uchun milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtirish, ta'lim tizimida ma'naviyatni markaziy o'ringa qo'yish va raqamli madaniyatda axloqiy immunitetni kuchaytirish zarur. Haqiqiy taraqqiyot – bu nafaqat texnologik, balki ma'naviy uyg'unlash orqali erishiladigan holatdir.

**Xulosa.** Postmodern madaniyat sharoitida ma'naviy bo'shliq muammosining yuzaga kelishi zamonaviy sivilizatsiya rivojlanishining tabiiy oqibati sifatida namoyon bo'lmoqda. Tadqiqot davomida aniqlanganki, postmodernizmning asosiy tamoyillari – relatyivizm, an'anaviy qadriyatlarining parchalanganligi, haqiqatning ko'p qirrali talqini, insonning ekzistensial yolg'izligi va iste'mol jamiyatining kuchayishi – shaxs ongida barqaror ma'naviy mezonlar yo'qolishiga olib kelmoqda. Natijada individ hayotining mazmuniy asoslari zaiflashadi, ma'naviy izlanishning yo'nalishi buziladi va shaxsning jamiyatga bo'lgan ruhiy bog'liqligi sustlashadi.

Postmodern muhitdagi ma'naviy bo'shliq faqat falsafiy yoki psixologik hodisa emas, balki ijtimoiy-madaniy jarayonlar, axborot makonidagi beqarorlik, global iste'molchilik, axloqiy me'yorlarning nisbiylashuvi va identitet inqirozi bilan chambarchas bog'liq murakkab tizimli hodisadir. Ma'naviy bo'shliqning kuchayishi jamiyatning ma'naviy immunitetini pasaytirishi, ijtimoiy aloqalarni zaiflashtirishi, axloqiy me'yorlarning yemirilishiga sabab bo'lishi mumkin.

Tahlillar shuni tasdiqlaydiki, ushbu muammoni bartaraf etishning asosiy yo'llari ma'naviy tiklanish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni qayta anglash, shaxsning ma'naviy dunyosini mustahkamlash, ma'naviy tarbiya tizimini modernizatsiya qilish va raqamli makonda ma'naviy xavfsizlikni ta'minlash bilan bog'liqdir. Bundan tashqari, ta'lim tizimi va madaniy-ma'rifiy muassasalarning faoliyati yoshlarda ma'naviy immunitetni kuchaytirish, axborotni tanqidiy qabul qilish, ma'naviy o'zlikni anglash jarayonida muhim rol o'ynashi aniqlangan.

Xulosa o'rinda aytish mumkinki, postmodern madaniyat sharoitida ma'naviy bo'shliq muammosini bartaraf etish keng qamrovli falsafiy, madaniy, pedagogik va axborot siyosatini talab etadi. U shaxsning ma'naviy dunyosini uyg'otishga, jamiyatning ma'naviy asoslarini mustahkamlashga, milliy o'zlik va ma'naviy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan uzluksiz jarayon hisoblanadi.

#### ADABIYOTLAR

1. Lyotar, J.-F. Postmodern holat: Zamonaviylik haqidagi hisobot. — Parij: Minuit nashriyoti, 1979. — 142 b.
2. Baudrillard, J. Simulyakra va simulyatsiya. — Nyu-York: Semiotext(e), 1981. — 164 b.
3. Giddens, A. Modernlik va o'zlik: Zamonaviy jamiyatda shaxs va identitet. — Cambridge: Polity Press, 1991. — 256 b.
4. Bauman, Z. Suyuq zamon: Noaniqlik asrida yashash. — London: Polity Press, 2000. — 228 b.
5. Fromm, E. Egallash yoki mavjud bo'lish. — Nyu-York: Harper & Row, 1976. — 192 b.
6. Lasch, C. Narsissizm madaniyati. — Nyu-York: Norton, 1979. — 303 b.
7. Toynbee, A. Tarixni o'rganish. — Oksford: Oxford University Press, 1954. — 348 b.
8. Huntington, S. Sivilizatsiyalar to'qnashuvi va dunyo tartibining qayta qurilishi. — Nyu-York: Simon & Schuster, 1996. — 367 b.